

**Bojxona organlarida amalga oshirilgan islohotlar
va ularning samaradorligi**

Sirochev Mexroj Bobirovich

Bojxona instituti Bojxona tartibga

solinishi va bojxona to'lovlari

kafedrasi o'qituvchisi,

e-mail: sirochevmexroj@gmail.com

Xalqimizning ulkan jasorati va matonati bilan 1991 yil 31 avgustda qo'lga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi ko'p ming yillik tariximizdagi hech qachon unutilmaydigan, qadr-qimmatini va ahamiyatini yillar, asrlar o'tgani sayin tobora ortib boradigan buyuk tarixiy voqeadir. Aynan milliy mustaqillik el-yurtimiz uchun jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish, shu jumladan, hayotning turli soha va tarmoqlarida keng ko'lamlil islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratib, erishayotgan barcha yutuq va marralarimizning asosiy manbai bo'lib kelmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va tarkibiy o'zgartirishlarni jadallashtirishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish maqsadida, mamlakatimiz Prezidentining 2022 yil 29 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni e'lon qilindi. Unda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita asosiy ustivor yo'nalishlaridan biri ekanligi belgilab berildi.

So'nggi yillarda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, xalqimizning farovonligini oshirish doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bojxona sohasini ham chetlab o'tmadi.

Shuningdek, davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, bojxona tartib - taomillarini soddalashtirish, avtomatlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq etish, infratuzilmalarni xalqaro standartlarga moslash hamda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga qulayliklar yaratish borasida bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Qayd etish lozimki, bojxona ma'murchiligini isloh etish, bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish, "raqamli bojxonani" shakllantirish, shuningdek, bojxona ishi sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish maqsadida oxirgi 3 yil mobaynida sohaga oid 140 dan ortiq normativ-xuquqiy xujjatlar qabul qilindi.

Ularda asosiy e'tibor:

- tashqi savdoni samarali monitoring qilish hamda Davlat byudjetiga tushumlar hajmini oshirish;

- ilg'or raqamli texnologiyalarini tatbiq etish orqali tizim faoliyati shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

- "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash va investitsion muhitni yaxshilash;

- bojxona organlari faoliyati va infratuzilma obyektlarining institutsional asoslarini yanada rivojlantirish;

- bojxona ishiga doir o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

- xodimlarning malakasini oshirish hamda ijtimoiy himoyasini mustahkamlash kabi ustuvor vazifalarga qaratildi va yetarli samaradorlikka erishildi.

Tizimda o'tkazilgan islohotlar samarasini quyidagi raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Import qilingan tovarlarning 76 % temir yo'l, 20,3 % avto, 0,1 % avia va 3,6 % boshqa transportda (*quvur*) tashilib, barchasi yangi joriy etilgan "xavfni boshqarish" tizimi orqali nazorat qilindi.

Tizim orqali eksportda 84 %, importda 74 % yuklar soddalashtirilgan tartibda

rasmiylashtirildi.

Yuk avtotransport vositalarini rasmiylashtiruvchi vaqti sezilarli tarzda qisqardi. Bojxona yuk deklaratsiyalari ilgari 2-3 soatda ro'yxatga olingan bo'lsa, bu jarayonning avtomatlashtirilishi natijasida 5 daqiqa sarf etilmoqda.

Bojxona organlari faoliyati va infratuzilma obyektlarining institutsional asoslarini rivojlantirish sohasida:

2021- yilning 10-sentyabr kuni **“Bojxona tartib - taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida”** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6310-son Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmon bilan,

Toshkent, Sirdaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari bojxona boshqarmalarida hamda boshqa hududiy boshqarmalarda toifadan tashqari maqomga ega bo'lgan **“Masofaviy elektron deklaratsiyalash”** bojxona postlari bosqichma - bosqich tashkil etildi.

Raqamli iqtisodiyot doirasida zamonaviy va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bojxona sohasiga joriy etish orqali bojxona organlari faoliyati shaffofligi hamda samaradorligini ta'minlash sohasida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan: raqamli bojxona doirasida axborot tizimlari 67 taga va interaktiv xizmatlar 33 taga yetkazildi. Bojxona organlari va TIF ishtirokchilari o'rtasida elektron hujjat va ma'lumot almashish bo'yicha **“TIF qatnashchisining shaxsiy kabinetini”** axborot platformasi joriy etildi.

2021-yil 1-apreldan joriy etilgan “Bojxona auditori” axborot tizimi yordamida tovarlar chiqarib yuborilgandan keyin TIF ishtirokchisi faoliyatini baholash orqali tovarlar va transport vositalarini bojxona auditidan o'tkazish imkoniyati yaratildi. “Real vaqt rejimida tovarlar va transport vositalari monitoringi” hamda “Tovarlar va transport vositalarini chiqarish vaqtini tadqiqot qilish” axborot platformalari “Yagona darcha” bojxona axborot tizimida ishga tushirilib, tovarlarning bojxona hududiga kirib kelishidan erkin muomalaga chiqarilishiga qadar monitoring qilish

imkoniyati yaratildi.

Xorijiy davlatlar, xususan **Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Afg'oniston** davlatlarining bojxona va boshqa xizmatlari bilan real vaqt rejimida o'zaro elektron axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi. Natijada, O'zbekiston Respublikasiga mazkur davlatlardan eksport qilingan tovarlar bo'yicha oldindan xabardor bo'lish hamda tovar haqiqatda yetib kelganda, ular bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar haqiqiylikini tekshirish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, 2026-yilga qadar bojxona organlariga quyidagi ustuvor vazifalarni bajarish bo'yicha topshiriqlar belgilangan:

- bojxona organlari tomonidan ko'rsatladigan xizmatlarni bosqichma-bosqich 99% elektron ko'rinishga o'tkazish;

- bojxona rasmiylashtiruv jarayonlari uchun sun'iy intellekt elementlarini joriy etish;

- tovarlar eksportida 70% va importida 50% gacha avtomatik bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazish;

- 95% importyolar uchun bojxona qiymatini belgilashning asosiy usulini qo'llash tartibiga o'tkazish;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Hozirgi kunda yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritish, milliy mahsulotlarimizning eksport salohiyatini oshirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf qilish, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish va tadbirkorlarga qulay shart-sharoit yaratish borasida iqtisodiyotimizda, xususan bojxona tizimida muhim islohotlar o'tkazilmoqda. Ko'zlangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi asosan bojxona organlari faoliyati samaradorligiga bog'liqdir. Hozirgacha qilingan ishlarga, islohotlarga va bundan keyin amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga ahamiyat qaratadigan bolsak O'zbekiston Respublikasi Bojxona tizimi dunyodagi tadbirkorlar orzusidagi bojxonaga aylanadi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.